

VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN SODIR ETILADIGAN JINSIY ZO'RAVONLIK JINOYATLARINI OLDINI OLISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Tashtemirov Anvar Aliqulovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, Ma'muriy huquq kafedrasida dotsenti.

E-mail: anvartoshtemirov05031979@gmail.com.

Choriev Asilbek Shavkat o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 3-o'quv kursi, 318-guruh kursanti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinsiy zo'rvonlik jinoyatlarining tushunchasi, ijtimoiy xavfi, bugungi kundagi holati, bunday turdagi jinoyatlarning oldini olish bo'yicha mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'nalishlari hamda II OI lari profilaktika xizmatining ushbu yo'nalishdagi asosiy vazifalari haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *voyaga yetmagan shaxs, bola huquqlari, zo'rvonlik, jinsiy zo'rvonlik, ta'ziyq, profilaktik chora tadbirlar, shahvoniy harakatlar, ta'lim-tarbiya, vasiy, homiy.*

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi xalqimiz, ayniqsa, yoshlar qalbida buyuk kelajakka intilib yashash tuyg'usini mustahkamlashdan iborat. Ma'lumki voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilayotgan jinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish borasida samarali chora tadbirlarni amalga oshirish har doimgidan ham jiddiy ko'rinish olmoqda.

Kuzatishlardan ma'lumki, bugungi kunda dunyo bo'yicha har kuni o'nlab voyaga yetmagan bolalar turli xavf-xatarlarga duch kelmoqda, bunday xavf xatarlarning eng jirkanlisi bu – bolalarga nisbatan jinsiy tajovuzkorlik bilan bog'liq jinoyatlardir. So'nggi yillarda voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy jinoyatlar soni juda tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda.

Ma'lumotlarga qaraganda 18 yoshga to'lmagan taxminan 150 mln qiz va 73 mln o'g'il bola majburiy jinsiy aloqa va jinsiy zo'rvonlikning qurboniga aylangan ekanlar. Bunday jinsiy zo'rvonliklarning aksariyati bola mansub bo'lgan oilaning boshqa a'zolari tomonidan amalga oshiriladi. Qizlarni jinsiy zo'rlash holatlari hamda o'g'il bolalarni ham shunday zo'rlash holatlari qarindoshlari va o'gay ota – onalari tomonidan amalga oshirilganligi aniqlangan. Ko'p odamlar, bolalar maktabda yoki mahallada o'ynayotganlarida jinsiy zo'rvonlik qurboni bo'lishlari xatari yuqori ekanligi haqida so'z yuritadilar, ammo ularning ayrimlari o'z uylarida va oilalarida shunday zo'rvonlik qurboni bo'lyaptilar. Oilada shahvoniy xos bo'lgan uyat, or – nomus va inkor qilish kabilar mavjud muammo xususida sukut saqlash odatini keltirib chiqaradi va bunda bolalar boshlaridan kechirgan jinsiy zo'rvonlik to'g'risida gapira olmaydilar, kattalar esa o'z uylarida bolalar yuz tutayotgan shahvoniy zo'rlanish xatari xususida sukut saqlaydilar va kattalar ular taniydigan kimsa biron bolani jinsiy

zo'rlayotganini bilsalar nima qilish yoki nima deyish kerakligini bilmaydilar. Bolalarning aksariyati o'z uylarida boshidan kechirgan shahvoniy zo'ravonlik to'g'risida hech kimga ayta olmaydilar. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik bo'yicha butun jahon hisoboti ularga va ularning oilalariga biror nima bo'lishidan qo'rqadilar, oilalari sharmanda bo'lishidan tashvishlanadilar. Ba'zi mamlakatlarda oilaning ayol a'zosi o'z bokiraligidan mahrum bo'lgan deb gumon qilinsa, jumladan zo'rlash qurboni bo'lgan bo'lsa ham oila sha'niga dog' tushirgan deb sanaladi va oilaning boshqa a'zolari tomonidan uni qatl qilishlargacha olib borish mumkin.

O'zbekistonda ushbu turdagi jinoyatlar statistikasiga oid ma'lumotlar har doim ham ochiq ma'lumotlar bazasida berilmasada, quyida ochiqlangan ayrim ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz. Masalan: Oliy Sud matbuot kotibi Aziz Obidov "Uzreport.news" manbasiga bergan xabariga ko'ra, 2022 yilda O'zbekistonda 500 nafarga yaqin shaxs voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik uchun jazoga tortilgan. Ulardan 23 nafari 14 yoshga yetmagan shaxsning nomusiga tekkan (O'zR JK 118-modda 4 qismi), 99 nafari o'n to'rt yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsga nisbatan jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish (O'zR JK 119-m 4-q) jinoyatlarini sodir etgan, 249 nafar shaxs 16 yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilgani uchun jazoga tortilgan (O'zR JK 128-m), 7 nafar shaxs o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxs bilan moddiy qimmatliklar berish yoxud mulkiy manfaatdor etish orqali jinsiy aloqa qilgani uchun jazoga tortilgan (O'zR JK 128-1-m.), 91 nafar shaxs o'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilgani uchun jazolangan (O'zR JK 129-m.).

2023 yil 10 oktyabr kuni Gazeta.uz. portali tomonidan berilgan xabarga ko'ra, 10 oktyabr kuni Ijtimoiy himoya milliy agentligi, O'zbekiston Adliya vazirligi va UNICEF hamkorligida «Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida»gi qonun loyihasiga bag'ishlab o'tkazilgan davra suhbatida Prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining birinchi o'rinbosari Shaxnoza Mirziyoeva O'zbekistonda 2023 yilning to'qqiz oyida 1240 ta voyaga yetmaganlarga nisbatan zo'ravonlik holatlari sodir etilganligini, shundan 417 tasi jinsiy zo'ravonlik ekanligini ta'kidlagan.

Respublikamizda ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini ta'minlash maqsadida, 2024 yil 14 noyabr kuni "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-996-son O'zbekiston Respublikasining Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 14 iyul kuni "Bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini aniqlash, zo'ravonlik xavfi darajasini baholash, himoya qilish rejasini ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 440-sonli qarori qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra, bolaning hayotiga, sog'lig'iga, jinsiy daxlsizligiga, sha'niga, qadr-qimmatiga hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan, jismoniy yoki ruhiy azob yetkazayotgan yoki yetkazishi mumkin bo'lgan hamda asosiy ehtiyojlariga zid bo'lgan, shu jumladan telekommunikatsiya

tarmoqlaridan va Internet butunjahon axborot tarmog'idan foydalangan holda amalga oshiriladigan, qasddan sodir etiladigan harakat (harakatsizlik) bolalarga nisbatan zo'rvonlik deb e'tirof etilishi belgilandi. Jismoniy zo'rvonlik, jinsiy zo'rvonlik, ruhiy zo'rvonlik, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik, ekspluatatsiya qilish va ta'qib etish (bulling) bolalarga nisbatan zo'rvonlikning shakllaridir. Bolalarga nisbatan zo'rvonlikning barcha shakllari taqiqlanadi hamda qonun bilan ta'qib qilinishi qayd etildi.

Bolaga nisbatan shahvoniy xususiyatga ega bo'lgan harakatlarni sodir etish orqali uning jinsiy daxlsizligiga tajovuz qilish, shu jumladan nomusga tegish, jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiiy usulda qondirish, jinsiy aloqa qilishga majburlash, o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish, voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlar ijrochisi sifatida jalb etish, voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda qo'shmachilik qilish, fohishaxonalar tashkil etish yoxud unga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar sodir etish, aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish orqali yoxud bolaning ojizligidan foydalanib shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish, shahvoniy shilqimlik qilish, shuningdek qonunda taqiqlangan, shahvoniy xususiyatga ega bo'lgan har qanday boshqa harakatlar bolalarga nisbatan jinsiy zo'rvonlik deb e'tirof etiladi.

Bolalarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish, ularni tahqirlash, shuningdek bolalarning asosiy ehtiyojlarini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalangan zo'rvonlik shakli, shu jumladan zo'rvonlikdan jabrlanuvchida o'z xavfsizligi uchun xavotir uyg'otgan, o'zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog'lig'iga zarar yetkazgan harakatlar (harakatsizlik) bolalarga nisbatan ruhiy zo'rvonlik deb e'tirof etiladi.

Zarur imkoniyatlar, bilimlar va ko'nikmalarga, shu jumladan buning uchun tegishli xizmatlardan (davlat, tibbiy, ta'lim, ijtimoiy va boshqa xizmatlardan) foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan ota-ona (ular o'rnini bosuvchi yoki bolaga qarab turgan shaxslar) tomonidan bolaning asosiy ehtiyojlarini qanoatlantirmaslik bolaning sog'lig'i, jismoniy, aqliy va axloqiy rivojlanishi buzilishiga olib kelsa, g'amxo'rlik ko'rsatmaslik deb e'tirof etiladi.

Boladan iqtisodiy, jinsiy va boshqa maqsadlarda foydalanish, shu jumladan odam savdosi, g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga va tilanchilik qilishga jalb etish, jinsiy ekspluatatsiya, shuningdek jismoniy yoki ruhiy ta'sir ko'rsatishni qo'llagan holda bolani majburlash orqali boladan nikohga kirish yoki er-xotin bo'lib yashash, muayyan diniy ta'lim olish, har qanday shakldagi mehnatga majburlash uchun foydalanish bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga, shu jumladan ta'lim olishiga tahdid tug'dirsa, bolalarni ekspluatatsiya qilish deb e'tirof etiladi.

Bir guruh bolalar yoki bitta bola tomonidan boshqa bolaga yoki bolalarga nisbatan haqoratli laqablardan foydalanish, u (ular) bilan har qanday muloqotni cheklab qo'yish (bojkot qilish), uning (ularning) mol-mulkini olib qo'yish va (yoki) mol-mulkiga zarar yetkazish, uning (ularning) o'ziga xos jismoniy, psixologik yoki

intellektual xususiyatlarini ommaviy muhokama qilish, uning (ularning) sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish yoxud uning (ularning) sog'lig'i va hayotiga zarar yetkazish, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlaridan va Internet butunjahon axborot tarmog'idan foydalangan holda amalga oshiriladigan, muttasil ruhiy va (yoki) jismoniy tajovuzkor ta'sir ko'rsatish ta'qib etish (bulling) deb e'tirof etiladi.

Bolaning to'laqonli rivojlanishi, uning jismoniy va ruhiy salomatligi uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlanishi, xavfsizlik, ta'lim olish, katta yoshdagilarning g'amxo'rliqi, ijtimoiy aloqalar o'rnatish, hayotiy ko'nikmalari rivojlanishi va o'z imkoniyatlarini amalga oshirishi uchun shart-sharoitlar yaratilishini qamrab oladigan hayotiy muhim ehtiyojlar majmui bolaning asosiy ehtiyojlari deb e'tirof etiladi.

Davlat bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish uchun tegishli huquqiy, ma'muriy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa choralarni ko'radi, shu jumladan bolani va uning oilasini qo'llab-quvvatlaydi hamda bolalarga nisbatan va bolalar o'rtasidagi zo'ravonlikning barcha shakllari hollarini aniqlash hamda ularning oldini olish, bolalarga nisbatan zo'ravonlik hollari to'g'risida xabardor qilish, ushbu faktlarni tekshirish, aybdor shaxslarning javobgarlikka tortilishi muqarrarligini ta'minlash, zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarni rehabilitatsiya qilish va ularning huquqlarini tiklash hamda ularni ijtimoiy moslashtirish uchun zarur bo'lgan samarali mexanizmlarni yaratadi.

Ushbu huquqiy normalar asosida zo'ravonlikdan jabrlangan bolaga va o'ziga nisbatan zo'ravonlik sodir etilishi xavfi ostida bo'lgan bolaga quyidagilarni o'z ichiga oladigan zarur huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy va boshqa yordam ko'rsatilishi ham belgilab qo'yildi:

☒ bola olgan, uning kelgusi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan ruhiy yoki jismoniy jarohatning salbiy ta'sirini kamaytirish;

☒ hayot sifatini oshirish va ruhiy-hissiy osoyishtalikni ta'minlash;

☒ xulq-atvoridagi og'ishishlarning yoki oila a'zolari, tengdoshlari bilan munosabatlaridagi buzilishlarning oldini olish va (yoki) ularning oqibatlarini bartaraf etish;

☒ sog'liqni tiklash va mustahkamlash;

☒ bolaning rehabilitatsiyasini va jamiyatdagi, shu jumladan, tengdoshlari guruhidagi, oilaviy muhitdagi ijtimoiy moslashuvini yengillashtirish;

☒ zo'ravonlik sodir etgan shaxsdan moddiy zararining o'rnini qoplash va ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish bo'yicha choralar ko'rish;

☒ yuridik yordam ko'rsatish, huquqiy axborot va huquqiy maslahatlar berish;

☒ zo'ravonlik sodir etgan yoki uni sodir etishga moyil bo'lgan shaxs bilan muloqotni cheklash yoki muloqotga to'sqinlik qilish;

☒ ularning vaqtinchalik xavfsizligini, ularning parvarishini ta'minlash va parvarishini amalga oshiradigan shaxsni tayinlash;

☒ xavfsiz boshpana berish;

☒ qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa choralar.

Zo'rvonlikdan jabrlangan bolaning va o'ziga nisbatan zo'rvonlik sodir etilishi xavfi ostida bo'lgan bolaning manfaatlaridan kelib chiqib, uning oila a'zolariga oilani mustahkamlash hamda qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, bolaning hayotiga yoki sog'lig'iga bevosita tahdid soluvchi omillarni bartaraf etish bo'yicha mas'ul davlat organlari va tashkilotlarining tegishli mutaxassislari jalb etilgan holda quyidagi xizmatlar ko'rsatiladi:

☒ zo'rvonlik sodir etganlikda aybdor shaxsning hissiy barqarorligini ta'minlash, shuningdek mazkur shaxsning ota-onalik salohiyatini, harakatlari uchun javobgarligini va ularning oqibatlarini anglab yetishi uchun ijtimoiy, psixologik, pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash;

☒ bolaga nisbatan zo'rvonlik, uning bola uchun oqibatlari hamda qonunchilikda belgilangan javobgarlik to'g'risida axborot va maslahatlar berish orqali oila a'zolarining huquqiy savodxonligini oshirish;

☒ zo'rvonlik sodir etgan yoki uni sodir etishga moyil bo'lgan shaxsda ruhiy holat buzilishlari aniqlangan taqdirda, belgilangan tartibda psixiatriya yordamini ko'rsatish;

☒ bolaga nisbatan zo'rvonlik sodir etilishiga bilvosita ta'sir ko'rsatgan iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida ish qidirayotgan shaxslarga va ishsiz shaxslarga xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan tadbirkorlikka jalb etish, o'zini o'zi band qilishni rivojlantirishga doir faoliyatni tashkil etish, kasbga tayyorlashga, qayta tayyorlashga va malakani oshirishga yuborish hamda boshqa choralar ko'rish orqali oilaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga ko'maklashish;

☒ bolaga nisbatan zo'rvonlik sodir etilishi tahdidi hisobga olingan holda, qonunchilikda taqiqlanmagan hamda xavf omillarini bartaraf etishga, oilani mustahkamlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshqa xizmatlarni ko'rsatish.

Yuqoridagi normalar asosida tegishli vakolatli organ mansabdor shaxslari tomonidan voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'rvonlik sodir etgan shaxslar reestrini maxsus axborot tizimi orqali shakllantirish va yuritish tartibi ham tasdiqlandi.

Unga ilgari quyidagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslar kiritiladi:

☒ 18 yoshga to'lmagan jabrlanuvchining nomusiga tekkanlik yoki unga nisbatan zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirganlik;

☒ 18 yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqada bo'lish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish bilan bog'liq holda jinsiy aloqa qilishga majbur etganlik;

☒ 16 yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilganlik yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirganlik yoki unga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilganlik;

☒ voyaga yetmagan shaxs tavsiflangan yoki tasvirlangan pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida O'zbekistonga olib kirganlik, xuddi shuningdek uni tayyorlaganlik, tarqatganlik, reklama qilganlik, namoyish etganlik;

❑ voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlarning ijrochisi sifatida jalb etganlik, voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda qo'shmachilik qilganlik, fohishaxonalarni tashkil etganlik yoki saqlaganlik;

❑ terrorizm kabi jinoyatlar kiritilgan.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, yurtimizda voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish borasida mavjud muammolarni chuqurroq o'rganish va tahlil qilgan holda bu kabi jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni oldindan aniqlash hamda ularni bartaraf etish ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladigan huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati oldida turgan asosiy vazifalardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ularni o'z vaqtida aniqlash hamda bartaraf etish bilan bog'liq masalalarni ijobiy hal etish ichki ishlar organlari tomonidan aynan voyaga yetmaganlar o'rtasida amalga oshiriladigan huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/8440>.

2. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 14 noyabrdagi "Bolalarni zo'rovonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-996-son qonuni.

3. Таштемиров А. Кибержиноятчилик ва унинг ўзига хос шаклланиш даврлари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – С. 133-139.

4. Абдухалилов Х. Д. Ў., Валиев Б. Б. Ў. Босқинчилик жиноятларини профилактика қилишнинг долзарб масалалари //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 116-119.

5. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий тармоқлар орқали содир этилаётган жиноятларга қарши курашиш чора-тадбирлари //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 24-31.

6. Aliqulovich T. A. Atxam o'g'li MX Profilaktika inspektorining ommaviy tadbirlarni o'tkazish jarayonidagi ishtirokining oziga xos xususiyatlari //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 24. – С. 230-235.

7. Таштемиров А., Нурматов Н. Айрим хорижий давлатларнинг тезкор қидирув фаолиятида соҳавий ҳамкорликнинг таҳлили //Иноватсионные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 190-197.

8. Таштемиров А., Хўжамбердиев А. Оила-турмуш муносабатлари доирасидаги ҳуқуқбузарликларнинг турлари ва таснифи //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 6. – С. 4-12.

9. Таштемиров А., Юлдошев Х. Ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда оммавий ахборот воситалари ва блогерлар билан ҳамкорликнинг ўзига хос жиҳатлари //Академические исследования в современной науке. – 2024. – Т. 3. – №. 17. – С. 55-61.
10. Таштемиров А., Нурматов Н. Айрим хорижий давлатларнинг тезкор қидирув фаолиятида соҳавий ҳамкорликнинг таҳлили //Инновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 190-197.
11. Тоштемиров А. Киберфирибгарлик билан боғлиқ жиноятларнинг пайдо бўлиш ва ривожланиш тарихи //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – С. 11.
12. Abduxalilov H. D., Xusanova M. M. Voyaga yetmagan jinoyatchining shaxsi //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 8. – С. 146-148.
13. Таштемиров А. А. и др. Зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тушунчаси ва ўзига хослиги //Innovative achievements in science 2024. – 2025. – Т. 4. – №. 37. – С. 82-90.
14. Abduxalilov X. et al. Profilaktika inspektorining qo 'shmachilik qilish va fohishaxona saqlash bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha tezkor qidiruv bilan hamkolrligini takomillashtirish //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 78-84.
15. Таштемиров А., Курчибоев Ж. Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлигининг профилактикасида таълим ва тарбиянинг ўрни ва аҳамияти //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 130-135.